



## INNOVATSION FAOLIYATNI SOLIQLAR ASOSIDA TARTIBGA SOLISHNING XORIJ TAJRIBASI

**Saidmurodov Feruz Sodiqjon o'g'li**  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
Samarqand filiali  
ORCID: 0009-0001-8261-9530

**Annotasiya.** Ushbu maqolada bir qator olimlarning fikr-mulohazalari asosida innovatsion faoliyatga soliq solishning mohiyati, innovatsiyaning ahamiyati batafsil ochib berilgan. Innovatsion faoliyatni soliqlar orqali tartibga solish bo'yicha xorijiy tajriba ham o'rganildi.

**Kalit so'zlar:** innovatsiya, soliq, soliq imtiyozlari innovatsion faoliyat, innovatsion infratuzilma, milliy innovatsiya tizimi, soliq siyosati, soliq stavkasi.

## ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ НАЛОГОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ НА ОСНОВЫ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

**Саидмуродов Феруз Содиқжон угли**  
Самаркандский филиал Ташкентского  
государственного экономического университета

**Аннотация.** В данной статье подробно раскрыта сущность налогообложения инновационной деятельности, значение инноваций, исходя из взглядов ряда ученых. Также изучен зарубежный опыт регулирования инновационной деятельности с помощью налогов.

**Ключевые слова:** инновации, налог, налоговые льготы, инновационная деятельность, инновационная инфраструктура, национальная инновационная система, налоговая политика, налоговая ставка.

## FOREIGN EXPERIENCE OF TAX REGULATION ON THE BASES OF INNOVATION ACTIVITY

**Saidmurodov Feruz Sodiqjon o'g'li**  
Samarkand branch of  
Tashkent State University of Economics

**Annotation.** This article highlights the essence of the digital economy, the importance of innovation. Special attention was paid to the problems and solutions of intellectual property, patent registration in the transformation of innovative development into digital.

**Key words:** innovation, tax, tax benefits, innovative activity, innovative infrastructure, national innovation system, tax policy, tax rate.

### **Kirish.**

Jahonda yuz berayotgan iste'molchilar uchun kurash jarayoni, har qanday mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini xo'jalik yurituvchi sub'ektlar innovatsion faoliyatining samaradorligini oshirishda soliqqa tortish tartibini takomillashtirish alohida ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlab turibdi.

O'zbekistonda olib borilayotgan islohatlar soliq siyosatini yanada takomillashtirish, xo'jalik sub'ektlariga soliq yukini kamaytirish, soliq hisobotlarini qisqartirish va ularning daromadlarini ortib borishiga erishishga qaratilgan. Jumladan, 2021 yilda Global innovatsion indeks reytingi e'lon qilinganligi, unda O'zbekiston o'tgan yilga nisbatan 7 ta pog'onaga ko'tarilib, 132 ta davlat orasida 86-o'rinni egallaganligi, shu sababli eng katta pog'ona yuqorilagan mamlakatlar top-10 taligiga kirganligi bunga misol bo'la oladi (Farmon, 2022).

Mustaqillik yillarida oldingi tizimdan meros bo'lib qolgan, ma'naviy va jismoniy eskirgan asosiy vositalarni yuksak darajadagi zamonaviy texnika va yuqori texnologiyalarga almashtirish, ularni ishlab chiqarishga tatbiq etish orqali innovatsion iqtisodiyotga o'tish borasida katta sa'y-harakatlar qilinmoqda. Zero, «Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalari, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak» (Mirziyoev, 2018). Darhaqiqat, soliq siyosati imkoniyatlari negizida innovatsion rivojlanishni ta'minlash yuzasidan chuqur ilmiy tadqiqotlar o'tkazilishi lozim. Mamlakat tovar eksporti tarkibida yuqori texnologiyali tayyor mahsulotlar ulushini oshirish, innovatsiyalarni amaliyotga qo'llashni jadallashtirish va tijoratlashtirish shular jumlasidan.

Jahonda innovatsion faoliyatni soliqlar yordmida ta'minlash bilan bog'liq ilmiy izlanishlar yetakchi ilmiy markazlar va oliy ta'lim muassasalarida amalga oshirilmoqda. Innovatsion tizimning muhim elementlari hisoblangan ta'lim, bilim va kadrlar, biznes va tadbirkorlik faoliyatini takomillashtirish, innovatsion g'oyalarni, texnologik ishlanmalarni samarali tijoratlashtirish orqali iqtisodiyotning raqobatdoshligini yanada oshirish, iqtisodiy o'sish sifatini yaxshilash va sur'atini jadallashtirish borasida ilmiy izlanishlar e'tiborga loyiq.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlari faoliyatini soliqqa tortishni optimallashtirish, soliq chegirmalarini joriy etish, soliqqa tortishni takomillashtirish bilan uyg'unlashtirish orqali innovatsion faoliyatni rag'batlantirish muhim sanaladi.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Shumpeter (1982) tomonidan 1930-yillarda innovatsiya tushunchasi kiritildi va u mahsulot ishlab chiqarish, sotish, yetkazish jarayonlaridayangi yoki takomillashtirilgan texnik, texnologik, tashkiliy xarakterdagi qarorlarni qo'llash oqibatida mumkin bo'lgan o'zgarishlarni o'z ichiga oladi deb ta'kidlaydi. Y.Shumpeter tomonidan innovatsiyaga berilgan ushbu ta'rifda ishlab chiqarish omillarining yangi kombinatsiyalari to'g'risidagi konsepsiyasi, innovatsiyalar nazariyasiga bo'lgan yondashuv asosini tashkil etadi. Y.Shumpeter o'zining asarida innovatsion faoliyatning quydagi yo'nalishlarini ajratib ko'rsatgan:

- yangi texnik va texnologik o'zgarishlar yoki ishlab chiqarish jarayonini yangi bozor talablari asosida tashkil etish;
- yangi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan mahsulot turlarini deversifikatsiyalash;
- ishlab chiqarish jarayonlarida yangi xom-ashyolardan foydalanish;
- ishlab chiqarishni tashkil etishda innovatsion boshqaruv usullaridan foydalanish;
- yangi iste'mol bozorlarini shakllantirish.

Amerikalik iqtisodchi olim J.Brayt "Innovatsiya jarayoni ilm va texnika, tadbirkorlik va boshqaruvni o'zida birlashtiruvchi innovatsiyalarning tijoratlashuviga qaratilgan iqtisodiy faoliyatdir" (Ochkovskaya, 2006) degan nazariyani ilgari surgan bo'lib, innovatsiya jarayoni g'oya paydobo'lishidan boshlab, tijorat asosida hayotga tatbiq etish jarayonigacha bo'lgan barcha bosqichni o'z ichiga oladi deb ta'kidlaydi. Innovatsion faoliyat rivojlanishning ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni ta'minlashning zaruriy sharti bo'lib, bu borada

Drukerning (2007) quyidagi fikriga alohida to'xtalib o'tish lozim. Uning fikricha "biznesning asosiy maqsadi mijozlarni jalb qilish bo'lganligi sababli korxonani ikkita asosiy funksiyasi mavjud marketing va innovatsiya" dan iborat deb hisoblaydi.

Innovatsion faoliyat natijasida noyob mahsulot, xizmat yoki ularning yaxshilangan modifikatsiyalari, shuningdek, yangi nusxalarini ishlab chiqarish kabi real imkoniyatlardan foydaladi. Innovatsion faoliyat yurituvchi iqtisodiy sub'ekt o'zi uchun ma'lum innovatsion g'oyani topishga ko'mak beruvchi axborot manbalarini alohida ajratishi muhim hisoblanadi. Bunday manbalar iqtisodiyot, moliya, soliq va bozor qonun-qoidalari hamda mexanixmlari haqidagi aniq bilimlar, yangi texnika-texnologiya, resurslar, ishlab chiqarishning yangi usullari, ba'zi mahsulotlarga ehtiyojlar innovatsion g'oyalarning manbalari sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Jumladan, iste'molchilar talabining o'zgarishi, ixtirochilik bilan mashg'ul bo'lgan olimlar, raqobatchilar faoliyati, innovatsion faoliyat bo'yicha mutaxassislar va bevosita tashkilotning ishchilari innovatsion faoliyatning rivojlanishida asosiy rol o'ynaydi.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Mazkur maqolada ilmiy-nazariy asos sifatida innovatsiya, soliqlar va soliqqa tortishga oid iqtisodiy adabiyotlar hamda ilmiy maqolalar, xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning iqtisodiyotni rivojlantirishda uning ahamiyatiga oid ilmiy asarlari o'rganilgan. Mavzuni o'rganish davomida adabiyotlar qiyosiy tahlili, mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish va qiyosiy taqqoslash usullaridan foydalanildi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Innovatsiyalar haqida fikr yuritishdan oldin, uning mazmuniga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq. "Innovatsiya – inconnung aql-zakovati, ishlab chiqarish tajribaci negizida yaratilgan, ishlab chiqarishga tatbiq etilgan, ayni vaqtda, iqtisodiy-ijtimoiy samara keltirayotgan intellektual mulk ko'rinishidagi yangiliklar, ixtirolar, kashfiyotlar, g'oyalar va yangicha yondashuvlar majmuacidir" (Shakirova, 2022). Agar innovatsion g'oya yaratilganda, ishlab chiqarishga tatbiq etilmaca, o'zining iqtisodiy nafilligini icbotlamaca, innovatsiya hisoblanmaydi. Bu o'rinda muhim bir holatni alohida ta'kidlash kerakki, yaratilgan innovatsiyalar tijoratlashtirilib, amaliyotga tatbiq etilib, iqtisodiy-ijtimoiy samara bergandagina ularni innovatsiyalar deb, hisoblash mumkin.

Ushbu ta'rif mazmuniga ko'ra, innovatsiyalar nafaqat g'oyalar, ishlanmalar, kashfiyotlardan iborat, balki innovatsiyalar tarkibiga umum taraqqiyotga xizmat qiluvchi ishlab chiqarishni tashkil etish, boshqarish va mulk ob'ektlarini samarali amalga oshirishga oid tashkiliy-boshqaruv tavsifidagi mutlaqo yangicha innovatsion yondashuv va tamoyillarni o'zida mujaccam etadi.

Innovatsiyalar jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining bir bocqichidan yetukroq bocqichiga o'tishning ilmiy, moddiy va ma'naviy acocini yaratib beradi. Aynan innovatsiyalar orqali jamiyatning ishlab chiqarish uculi, ishlab chiqarish vocitalari cifat va miqdor jihatdan takomillashadi. Ishchi kuchida ham cifat o'zgarishlari codir bo'ladi, uning taqcimoti takomillashadi. Bu holatlar, o'z navbatida, odamlarning kundalik turmushida qulaylik, ijobiy cifat o'zgarishlar bo'lishiga, hayot cifatining oshishiga xizmat qiladi.

Fikrimizcha, o'z faoliyatiga doimiy ravishda innovatsiyalar, ya'ni yangiliklar, ixtirolar, yangi texnologiyalar, texnikalar, boshqarish va mehnatni tashkil etishga zamonaviy tizimlarni kiritib, amaliyotga tatbiq etib boradigan faol tadbirkorgina inqiroz domiga tushish va bankrot bo'lish xavfidan xoli bo'ladi. Draker (1992)ning ta'kidlashicha, "tadbirkorlarni innovatsion fikr yuritish bilan farqlashadi. Innovatsiyaga ega bo'lish tadbirkorlikning acociy qurolidir".

Innovatsion faoliyatni soliqlar yordamida tartibga solish masalasini o'rganish uchun biz avvalo rivojlangan davlatlarning ushbu boradagi tajribasini o'rganishimiz maqsadga muvofiq.

Masalan, innovatsiyalar sohasida jahonda tan olingan mamlakat Yaponiya an'anaviy ravishda innovatsion rivojlanishni rag'batlantirish uchun quyidagi usullardan foydalanadi:

- ilmiy-tadqiqot uskunalari uchun tezlashtirilgan amortizatsiyadan foydalanish imkoniyati;
- innovatsion ishlanmalar uchun xarajatlarga soliq imtiyozlari;
- xorijiy ilg'or texnologiyalarni sotib olish xarajatlari uchun soliq imtiyozlari.

Innovatsion faoliyatni rag'batlantirishga xizmat qiluvchi soliq imtiyozlari asosan Yaponiyada "Maxsus soliq me'yorlari qonuni" ga mos holda rag'batlantirib boriladi, jumladan, daromad solig'i va korporativ soliqlardan berilayotgan soliq imtiyozlari mamlakatning ishlab chiqarish sanoatini rivojlantirishga xissa qo'shmoqda. Shu bilan birgalikda kichik va o'rta biznes texnologiyalari fondini qo'llab-quvvatlash borasida innovatsion faoliyatni rag'batlantirish uchun berilayotgan soliq imtiyozlari va solik kreditlari mamlakatda innovatsion tajriba va tadqiqotlarni yanada rivojlanishiga olib keldi.

## 1-jadval

**Yaponiyada innovatsion rivojlanish va innovatsion texnologiyalarga soliq kreditini qo'llashning iqtisodiy samaradorligi (Sakata, Kenzo & other 2015)**

Vaqt	Samara	Innovasion rivojlanishga investisiya (yena) (soliq krediti yiliga 600 mlrd.yena)	Innovasion texnologiyalarga investisiya (yena) (soliq krediti yiliga 700 mlrd.yena)
Qisqa vaqtdagi samara (birinchi yil)	Aylanma kapitalni o'sishi	1,2 - 1,9 trll.	2,8 trll.
	YaIM o'zgarishi (yena)	0,7 - 1,0 trll.	1,5 trll.
O'rta muddatli samara (3 yil)	Aylanma kapitalni o'sishi	2,8 trll.	11 trll.
	YaIM o'zgarishi (yena)	1,5 trll.	6,0 trll.
	Yangi ish o'rinlari	190 ming	780 ming
	Yuqori cho'qiga chiqishi	10 yilda	3 yilda

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, Yaponiyada innovatsion faoliyatni soliq imtiyozlari va soliq kreditlari vositasida yanada rivojlantirish masalalari samaradorligi yuzasidan ko'plab tadqiqotlar olib borilgan jumladan, tadqiqot natijalariga ko'ra mualliflar qisqa va o'rta muddatlarda soliq imtiyozlari va soliq kreditlarini mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga ta'sirini taxlil qilishib, imtiyozlar kutilgandek talabga emas aksincha, belgilangan imtiyozlar natijasida IT sohalari va innovatsiyalarga investitsiyalar hajmini oshirganligi, mashinasozlik mahsulotlari va tajriba tadqiqot asbob-uskunalari taklifi oshganligi evaziga ish o'rinlari ko'payganligi keltirib o'tilgan.

Ilm fan va innovatsiyalarni rivojlantirishga davlat tomonida qo'imcha imtiyozlarning ortib borishi natijasida birinchi yil imtiyozlar 600 mlrd. yena teng bo'lgani holda, ilm fanga 73 mlrd. yena investitsiya kiritilgan tegishli vazirliklarning xisob-kitoblariga ko'ra kelgusi 3 yilda YaIM 3.4 trln. yena va kelgusi 10 yilikda 7 trln. yena ortishi kerak edi, tadqiqotchilar tomonidan qilingan 3 yillik prognozlar mos kelgani holda, 10 yillik prognozi 2 barobar yuqori baholanganligi ma'lum bo'ldi (Tanaka, 2006).

Yaponiyaning hozirgi kundagi xalqaro innovatsiya va innovatsion ishlanmalar bozorida yuqori o'rnini egallashiga hukumat tomonidan innovatsion faoliyatni muntazam ravishda qo'llab-quvvatlab, ularga turli soliq imtiyozlari va soliq kreditlari berilayotganligi ijobi ta'sir krsatmoqda.

Frantsiyada 100 million evrogacha bo'lgan ITTKI xarajatlariga 30 foyiz soliq chegirmasi va 100 million evrodan oshgan qismiga yana 5 foyiz qo'shib chegirma hisoblanadi (ИВАНОВА, 2018).

Agar Xitoy tajribasini ko'rib chiqsak, innovatsiyalarni rag'batlantirish sohasida juda ko'p turli xil soliq imtiyozlari va preferensiyalarini qayd etishimiz mumkin. Ayniqsa:

- Xitoy kompaniyalariga soliq solinadigan foydadan ilmiy-tadqiqot ishlariga sarflangan xarajatlar summasini 0,5 baravar yoki 150 foizga chegirib tashlash imkoniyati berilgan. Shu bilan birga, samarasiz tadqiqot va innovatsion ishlanmalardan ko'rilgan yo'qotishlar va zararlar kelajakda besh yil davomida ushlab qolinishi mumkin. Ilmiy-tadqiqot jarayonida foydalaniladigan asbob-uskunalar ham tezlashtirilgan amortizatsiyaga tortilishi mumkin;

- sohadagi yuqori texnologiyali ishlab chiqarish korxonalarini uchun yuridik shaxslarning imtiyozli soliq stavkasi (15%) belgilandi. Shu bilan birga, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari korxonalarini uchun yuridik shaxslardan olinadigan soliq stavkasi 25 foiz;

- jismoniy shaxslarning Oliy va yangi texnologiyalar jamg'armasi (YTJ) grantlari hisobidan olingan daromadlariga 15 foiz miqdorida imtiyozli (imtiyozli) stavka bo'yicha daromad solig'i solinadi;

- kompyuter va dasturiy ta'minotni ishlab chiqishga ixtisoslashgan korxonalar tomonidan olingan birinchi foyda 5 million xitoy yuani miqdorida soliqdan ozod qilinadi (korporativ daromad solig'i solinmaydi);

- 5 million xitoy yuani ortiq texnologiya transferidan olingan har qanday daromad ikki baravar yoki 50 foizga pasaytirilgan stavka bo'yicha korporativ daromad solig'iga tortiladi;

- dasturiy ta'minot sohasida yangi tashkil etilgan korxonalarga ko'pincha soliq ta'tillari beriladi;

- ilmiy-tadqiqot ishlariga kiritilayotgan xorijiy kapital uchun import uchun davlat boji va QQS to'lashdan ozod qilish shaklida imtiyozlar berilishi mumkin;

- ilmiy-tadqiqot muassasalari Xitoyning mahalliy uskunalarini xarid qilishda QQS to'lamaydi;

- maxsus erkin iqtisodiy zonalarda yangidan tashkil etilgan yuqori texnologiyali korxonalarga soliq ta'tillari beriladi.

Rossiya Federatsiyasida joriy etish yoki innovatsion faoliyatni amalga oshiruvchi tashkilotlarga investitsion soliq imtiyozlari beriladi. Bu berilgan ssuda va hisoblangan foizlarni to'lash sharti bilan (3/3 foizdan ko'p bo'lmagan stavkada) daromad solig'ini (shuningdek, hududiy va mahalliy soliqlarni) to'lashni besh yilgacha muddatga kechiktirish shaklidir. Rossiya Federatsiyasi Markaziy bankining qayta moliyalash stavkasining 4-moddasi) (Rossiya Federatsiyasi Soliq kodeksining 67-moddasi) .

Soliq imtiyozlari tizimi rivojlangan davlatlar qatoriga Singapur, Malayziya, Isroil, Koreya Respublikasi, Frantsiya, AQSH va boshqa davlatlar ham kiradi. Bizning fikrimizcha, hozirgi vaqtda respublikamiz uchun eng dolzarb tizim bu nafaqat ilmiy-tadqiqot dasturlarini rag'batlantirish, balki innovatsion faoliyatni boshlashni rag'batlantirishga qaratilgan soliq imtiyozlari tizimidir.

Innovatsion faoliyat nafaqat ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish omillariga nisbatan, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonini tashkil etish yoki mahsulotning o'zida namoyon bo'lmay, balki ayni jarayonida ishtirok etayotgan insonlar faoliyatini tashkil etishga nisbatan ham ishlatiladi.

Innovatsion faoliyat iqtisodiy tarmoqlar sohalarida turli darajada namoyon bo'ladi, ya'ni ba'zi tarmoqlarda innovatsion faollik yuqori darajada bo'lsa ba'zi tarmoqlarda past yoki o'rtacha darajada bo'lishi mumkin. Aynan innovatsion faoliyat iqtisodiyotni rivojlantirivchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Barchaga ma'lumki, innovatsion faoliyatni rivojlantirishda birinchi o'rinda innovatsion g'oya, innovatsion loyihalar kerak bo'lsa, ulardan keyingi o'rinda ushbu innovatsiyalarni amaliyotga tadbiq etishga zarur moliyaviy manbalar turadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, sanoati rivojlangan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotning 80-95 foiz qo'shimcha o'sishi innovatsiyalarga asoslangan yangi bilimlar hissasiga to'g'ri kelmoqda (Эрмаматов, 2016).

AQSHda innovatsion faoliyatni rivojlantirish davlat dasturi qabul qilingan bo'lib, innovatsion faoliyat davlat tomonidan tartibga solinib turilganligi sababli bu sohada boshqa mamlakatlarga qaraganda sezilarli yutuqlarga erishgan va ko'p yillar davomida innovatsion faoliyat sohasida birinchilikni egallab kelmoqda.

## 2-jadval

**AQSHda davlat tomonidan innovatsion faoliyatni tartibga soluvchi davlat organlari**  
(Аликулов, Давронов, 2015)

Davlat organlari nomlari	Vazifasi
Amerika ilmiy jamg'armasi	Mamlakatda olib borilayotgan fundamental tadqiqotlarni boshqaradi va muvofiqlashtiradi.
Amerika ilmiy kengashi	Sanoat sohasida ilmiy-tadqiqotlar olib boradi, ilmiy-o'quv jarayonlarini tashkil etadi va boshqaradi.
NASA	Aerokosmik tadqiqotlarni olib boradi.
Milliy standartlar byurosi	AQSHda ishlab chiqarilgan, mamlakatga kiritilayotgan tovarlar, xizmatlarni standartlash ishlarini tashkil etadi va boshqaradi.
Mudofaa vazirligi	Harbiy mudofaa sohasidagi ilmiy-tadqiqotlarni tashkil etadi va muvofiqlashtiradi.
Sanoat tadqiqotlari Milliy markazi	Sanoat bilan boshqa tarmoqlar, sohalar integratsiyasini ta'minlovchi ilmiy-tadqiqotlarni olib boradi.
Milliy fanlar akademiyasi	Mamlakat miqyosida olib borilayotgan fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlarni tashkil etadi va muvofiqlashtiradi.
Milliy texnika akademiyasi	Amerikani modernizatsiyalash, texnik-texnologik yangilashga oid tadqiqotlarni tashkil etadi, boshqaradi va muvofiqlashtiradi.
Amerika fanlari rivojlanishiga ko'maklashuvchi assotsiatsiya	Barcha fanlarni rivojlantirish, takomillashtirish, boyitishga oid chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi.

Iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar va o'tkazilgan so'rovlarni shuni ko'rsatadiki, respondentlarning fikriga ko'ra innovatsion faoliyatni amalga oshirishga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi (Зверев, 2008):

- o'z moliyaviy mablag'larini etishmasligi – 48%;
- investitsiyani qoplanish muddatining uzoqligi – 36%;
- iqtisodiy riskning yuqoriligi – 27%;
- soliq darajasining yuqoriligi – 22%;
- malakali mutaxassislarining etishmasligi – 17%;
- innovatsion faoliyatga oid me'yoriy-huquqiy ba'aning etarli darajada rivojlanmaganligi – 16%;
- kredit olish qiyinligi, kredit shartlarining og'irligi, xususiy ilmiy tadqiqot ba'zalarining yo'qligi, innovatsion mahsulotlarga bo'lgan bozor talabi haqidagi ma'lumotlarning etishmasligi – 10%.

Keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki innovatsion faoliyatni rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi turli sabablar mavjud bo'lib bu sabablar va uning innovatsion faoliyatni rivojlantirishga ta'siri turli mamlakatlarda ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga qarab turlicha bo'ladi. Innovatsion faoliyatning rivojlanganlik darajasi, yalpi milliy mahsulotga qo'shayotgan ulushi mamlakatdagi mavjud qonunlar va me'yoriy huquqiy hujjatlarni takomillashtirish darajasiga bog'liq bo'ladi.

AQSHda 70 yillarda vujudga kelgan iqtisodiy muammolar bozor iqtisodiyotiga davlatning aralashuvining to'g'ri ekanligiga shubha uyg'otganligi sababli AQSH davlatining iqtisodiy siyosati qayta ko'rib chiqildi va o'zgartirishlar kiritildi. Davlat iqtisodiyotini boshqarishi kerak degan Kenys nazariyasi o'rniga, bir muncha davlat aralashuvini qisqartirishga yo'naltirilgan "Reyganomika" iqtisodiy tamoyillari asosida mamlakat iqtisodiyoti rivojlana boshladi. Bu

tamoyilning mohiyatiga ko'ra iqtisodiyotni rivojlantirishda birinchi o'rinda ishlab chiqarishni, uni texnik va tarkibiy qismini qayta qurish va kapitalni xalqaro darajada harakatini ta'minlash zarur bo'ladi (Свечкин, 1993). Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishga yangi texnika texnologiyalarni joriy qilinishini yo'lga qo'yish, innovatsion faoliyatni rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatini birmuncha eguluvchan bo'lishini talab qiladi, chunki bu ularga investitsiya ko'proq talab qilinishi, xodimlar malakasini oshirishga xarajatlarning ortishi, ekologik va ijtimoiy muammolarni hal qilishga yangicha yondoshuvni talab qiladi. Amerika iqtisodiyotini rivojlantirishga qaratilgan reconomika quyidagilarni o'z ichiga olgan:

- 1) daromad solig'i va korporatsiyalar solig'ini qisqartirish;
- 2) ijtimoiy dasturlarni kamaytirish hisobiga davlat xarajatlarini qisqartirish;
- 3) tadbirkorlik faoliyatiga aralashmaslik;
- 4) inflyatsiyani qisqartirishga qaratilgan qattiq pul-kredit siyosatini amalga oshirish.

Aynan korporatsiyalar solig'ini qisqartirish va turli soliq imtiyozlarining joriy etilishi innovatsion faoliyatni yanada rivojlanishiga asos yaratdi. Bozor iqtisodiyoti o'zini-o'zi tartibga soladigan iqtisodiyot, unga davlat aralashishi kerak emas deb hisoblaydigan olimlar ham bilishadiki, iqtisodiy tsikllik tushunchasi mavjud va unda iqtisodiy o'zgarishlar krizis bosqichidan boshlanib krizis bosqichida tugaydi, shunday ekan, davlatning iqtisodiyotga aralashuvi aynan o'sha krizisni iqtisodiyotga ta'sirini yumshatishga ijobiy ta'sir qilishini unutmashimiz kerak.

Davlat tomonidan innovatsion faollikni rag'batlantirishda soliq imtiyozlaridan foydalanish yoki soliq stavkasini pasaytirish natijasida mamlakat iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash imkoniyatlari amalda Amerika qo'shma shtatlarida 1940 yillardan boshlab amalga oshirila boshladi, jumladan Stenford universiteti qoshida Elektron hisoblash mashinalarining dastlabki yirik ishlab chiqarish korxonasi aynan Silikon vodiysida IBM kompaniyasi tomonidan 1956 yilda qurilgan bo'lib, Silikon vodiysi yuqori texnologik innovatsion ishlab chiqarish va ag'oli turmush farovonligini oshirishga xizmat qiluvchi markazga aylangan. "Silikon vodiysi" da (Silicon valley) IT va yuqori texnologiya, innovatsiyalar sohasida faoliyat yuritayotgan dunyodagi eng yirik 20 ta kompaniya va minglab innovatsion firma va tashkilotlar faoliyat olib bormoqda. Bu kompaniya, firma va tashkilotlar asosan innovatsion faoliyat olib borayotganligi sababli ularda ish jarayonlari uzuliksiz tashkil qilingan, ular faoliyatida ishlab chiqarish xarajatlarining ko'pligi va tavakkalchilik (risk) yuqoriligi sababli davlat tomonidan ularga turli ko'rinishda imtiyozlar va granlar taqdim etilganligi uchun qilingan xarajatlar evaziga boshqalardan bir necha barobar foyda olish imkonini beruvchi innovatsiyalar, innovatsion texnologiyalar yaratilmoqda. Bugungi kunda dunyodagi mashhur brendlar, jumladan, Apple, Xerox, Oracle, E-Bay, Google, Yahoo, PayPal, Facebook, Twitter, Uber, Tesla aynan shu Silikon vodiysida rivojlangan.

Amerikada universitetlar bilan korporatsiyalarning hamkorlik aloqalarini mustahkamlashga oid hamda innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiluvchi qator qonunlar va dasturlar yaratilgan, jumladan, innovatsiyalar to'g'risidagi Stivenston Uaydler qonuni, Federal hukumatning yagona patent siyosati to'g'risidagi qonuni, Adliya vazirligining qo'shma venchurli tadqiqot muassasalariga nisbatan qo'llaniladigan antitrest qonunchiligining yo'riqnomasi, Kichik biznes orqali innovatsiyalarni rivojlantirish to'g'risidagi qonun, Hukumatga tegishli bo'lgan laboratoriyalar va institutlarda ishlab chiqilgan texnologiya larni xususiy biznesga berish to'g'risidagi qonun va Milliy innovatsion imkoniyat dasturilari amalda qo'llanilmoqda.

AQSHda innovatsion faoliyatni kengaytirish yo'llaridan biri sifatida innovatsiyalarni amalga oshiruvchi korporatsiyalar uchun imtiyozli kredit va soliqlar kreditlari taqdim etilmoqda. Soliq krediti AQSH universitetlarida milliy sanoat uchun muhim bo'lgan uzoq muddatli tadqiqotlarning samarali olib borilishi uchun taqdim etiladi, shu bilan birgalikda soliq krediti xususiy firmalar tomonidan universitetlarga buyurtma qilgan innovatsion tadqiqotlar sonini oshirishi uchun xizmat qilganda xam taqdim etiladi. Soliq kreditlari firma va

korporatsiyalar rivojlanishining dastlabki bosqichida jumladan, bozorga yangi mahsulot va texnologiyalarni ishlab chiqarishda xarajatlarini 50 foizgacha to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirishda (subsidiyalar, zayomlar), dotatsiyalar beriladi, innovatsion loyihalarni ishlab chiqishga joriy etilishini qo'llab-quvvatlashda venchur moliyalashtirish fondlaridan samarali foydalaniladi. Innovatsion faoliyatni rag'batlantirishda yakka tartibdagi kashfiyotchilar uchun davlat bojlari pasaytiriladi, davlat tomonidan beriladigan yordam puli innovatsiyalarning xavfli loyihalarini qoplashga xizmat qiladi, innovatsion faoliyatda davlat, bank kreditlarini olishda kafil sifatida ishtirok etadi. AQSH ning ayrim shtatlarda investitsiyalarning 25%gacha miqdorida soliq kreditlari asosida rag'batlantiriladi.

AQSH hukumati tomonidan innovatsion faoliyat sohasida investitsiyalardan foydalanish maqsadida soliqning rag'batlantiruvchi funksiyasidan tobora keng foydalanilmoqda, energiya manbalarini qayta tiklanadigan innovatsiyalarga o'tkazish hamda yashil texnologiyalardan samarali foydalanishga yo'naltirilgan innovatsion loyihalarga imtiyozlar ajratishga ustuvor yo'nalish sifatida e'tibor qaratilmoqda.

Germaniyada innovatsion faoliyatni rag'batlantirish uchun maqsadli soliq imtiyozlari joriy etilgan. Jumladan, foyda solig'i bazasi ITTK ishlariga sarflangan xarajatlar miqdoriga kamaytirilishi, korxonalarining innovatsion faoliyat bilan shug'ullanish uchun tashkil etilgan maqsadli jamg'armalari yoki shunday jamg'armalarga yo'naltirilgan mablag'lari soliqlardan butunlay ozod etilishi, korxonalar va tashkilotlarning universitet, ilmiy tadqiqot markazlarining imliy tadqiqotlar olib borishga bog'liq moddiy-texnik bazasini muctahkamlash bo'yicha yo'naltirilgan acbob-uckuna yoki mablag'lari miqdoriga foyda solig'i bazasi kamaytirilishi, innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi korxonalar aksiyasidan olingan dividendlarning soliqdan ozod etilishi, innovatsion loyihalarni amalga oshirayotgan korxonalariga soliq ta'tillari joriy qilinishi kabi imtiyoz va preferentsiyalarni mamlakatimiz soliq tizimida ham joriy etilishi bu yo'nalishdagi ishlarimiz yanada jadallashishiga ijobiy ta'cir ko'rsatadi.

Germaniya iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirishda kichik biznes cub'ektlarining o'rni beqiyos. Agar yirik kompaniyalar o'z innovatsion mahsulotlarini mashinacozlik, avtomobilsozlik, kimyo sanoatiga yo'naltirsa, kichik biznes sub'ektlari "kelajak texnologiyalari" yaratadi.

Yuqori texnologiyali innovatsion mahsulot ishlab chiqaruvchi kichik biznes sub'ektlari salmog'i jamiga nisbatan 45,25 %ni tashkil etgani holda, innovatsion jarayon yoki texnologiyalarni joriy etgani bilan birgalikda 57 %ni tashkil etishi ijobiy holat sifatida qaraladi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, mamlakatda ilmiy tadqiqot natijalari bo'yicha olinayotgan patentlarning 75 % aynan kichik biznes cub'ektlari hiccaciga to'g'ri kelib, jami 32 mingga yaqin biznes cub'ektlari ilmiy tadqiqot ishlariga investitsiya kiritishga va jalb qilishga ixticlashgan. Ular tomonidan yaratilgan ilmiy texnika yangiliklarining kommertsiyasi 110 mingga yaqin kichik biznes cub'ektlari tomonidan amalga oshiriladi.

Bizning fikrimizcha, yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarishdagi kichik biznes cub'ektlarining iqtisodiy faolligi tufayli Germaniya dunyo innovatsion mahsulotlar bozoridan AQSH va Yaponiyadan keyingi uchinchi o'rinda turadi. Germaniya iqtisodiyotiga 2019 yildan buyon jahon bozoridagi yuqori texnologiyali innovatsion mahsulotlar savdosidan 530 mlrd. dollar miqdorida mablag' olib kelmoqda (Patric, Yashin, 2009).

Dunyoning innovatsion rivojlangan va jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan davlatlarida yuritilayotgan samarali soliq va boshqa imtiyozlar tizimi quyidagilarda namoyon bo'ladi (Shakirova, 2022):

mualliflik huquqi va intellektual mulkning daxlsizligini iqtisodiy-ma'naviy jihatdan ta'minlash;

ITTKIdan olinayotgan foydadan olinadigan soliqning bir qismi yoki to'liq hajmini mazkur sohaga xo'jalik yurituvshi subyektlar ixtiyoriga qoldirish;

yirik, davlat ahamiyatiga molik loyihalarni realizasiya qilayotgan loyiha ishtirokshilariga



“soliq ta’tili” tizimini qo’llash;

innovatsion faoliyat ishtirokchilarining olayotgan dividendlari, foydasini imtiyozli soliqqa tortish;

innovatsion faoliyat subyektlarining ehtiyojlari uchun qilinadigan tovar-moddiy boyliklarni xarid qilishda imtiyozli soliq, boj-tarif tizimini qo’llash maqsadga muvofiq bo’ladi;

mamlakatimizda iqtisodiyot barqarorligini ta’minlashda ITTKlarni soliqlarning rag’batlantirish funksiyasi yordamida rivojlantirish maqsadga muvofiq. Xususan, korxonalar foyda solig’ini hisoblashda, soliq bazasini ilmiy ishlanmalarga sarflangan mablag’lar miqdoriga qisqartirilishi maqsadga muvofiq;

ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug’ullanuvshi korxonalarini qo’llab-quvvatlash maqsadida korxonalar ustav kapitalini shakllantirishga yo’naltirilgan mablag’lar miqdoridan kelib chiqib, tabaqalashtirilgan soliq imtiyozlarini joriy etish maqsadga muvofiq. Bunda, soliq imtiyozi muddati ilmiy tadqiqot ishi bilan shug’ullanuvshi yangi tashkil etilgan korxonaning ustav kapitali miqdoriga qarab belgilanadi.

Yurtimizda olib borilayotgan oqilona makroiqtisodiy siyosat va uning eng ta’sirshan, muhim yo’nalishi bo’lgan soliqqa tortish masalalarida ham ustivorlik tovar va xizmat ishlab shiqaruvshilar, tadbirkorlik subyektlari manfaatiga berilmoqda (Шакирова, 2022). Oxirgi yillardagi soliq stavkalari bo’yicha ijobiy o’zgarishlarni taxlil qiladigan bo’lsak quyidagilarga e’tibor beramiz (3-jadval).

### 3-jadval

#### O’zbekistonda 1992 yildan 2023 yilgacha bo’lgan davrda soliq to’lovi stavkalarining o’zgarishi<sup>81</sup>

Soliq turlari	1992-2009-yillardagi eng yuqori soliq stavkalari	2010-yilda o’rnatilgan stavkalar	2021-yilda o’rnatilgan stavkalar	2023-yilda o’rnatilgan stavkalar	Pasayish
Qo’shimcha qiymat solig’i	30 foiz	20 foiz	15 foiz	12 foiz	2,5 barobar
Yuridik shaxslarning daromad (foyda) solig’i	45 foiz	9 foiz	15 foiz	15 foiz	3 barobar
Yuridik shaxslar uchun mulk solig’i	5 foiz	3,5 foiz	2 foiz	2 foiz	2,5 barobar
Kichik korxonalar uchun yagona soliq to’lovi	15,2 foiz	7,0 foiz	4 foiz	4 foiz	3,8 barobar
Jismoniy shaxslarning daromad solig’i	60 foizgacha	22 foizgacha	12 foiz	12 foiz	5,0 barobar
Yagona ijtimoiy to’lov	40 foiz	25 foiz	12 foiz	12 foiz	3,3 barobar

Jadval ko’rsatadiki, tahlil uchun olingan davrlarda iste’mol talabi va tovar (ish, xizmat)larni ishlab chiqarishni kengaytirishni rag’batlantirish maqsadida qo’shimcha qiymat solig’i stavkasi 30 foizdan 12 foizga tushirildi va 2,5 barobarga pasaytirildi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yagona soliq to’lovi stavkasi yalpi tushumning 2005 yildagi 15,2 foizidan 4 foizga tushirildi, 3,8 barobarga pasaytirildi. Mustaqillik yillarida yuridik shaxslar daromad solig’i stavkasining pasaytirilishi korxonalar va tashkilotlarning oborot mablag’ini to’ldirishga, moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga ijobiy xizmat qiladi.

Muayyan soliq turi stavkasining pasayishi alohida ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega. Masalan, yagona ijtimoiy to’lov, jismoniy shaxslarning daromad solig’i stavkalarining kamayishi ishlaydigan ishchi-xodimlar va aholi daromadlarining muttasil oshib borishiga hamda ularni yanada kushli ijtimoiy muhofaza qilishga xizmat qiladi ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

<sup>81</sup> O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida hisoblangan.

Bunday samarali soliq siyosati natijasida xo'jalik yurituvchi subyektlar ixtiyoriga majburiy tarzda to'lanishi lozim bo'lgan mablag'larning qoldirilganligi ularga davlat tomonidan ko'rsatilgan g'amxo'rlik va ularni qo'llab-quvvatlanishning aniq ko'rinishidir.

### Xulosa va takliflar.

Dunyoning innovatsion rivojlangan va jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan davlatlarida yuritilayotgan samarali soliq va boshqa imtiyozlar tizimi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

ITTKIdan olinayotgan foydadan olinadigan soliqning bir qismi yoki to'liq hajmini mazkur sohaga xo'jalik yurituvchi sub'ektlar ixtiyoriga qoldirish;

yirik, davlat ahamiyatiga molik loyihalarni realizatsiya qilayotgan loyiha ishtirokchilariga "soliq ta'tili" tizimini qo'llash;

innovatsion faoliyat ishtirokchilarining olayotgan dividendlari, foydasini imtiyozli soliqqa tortish;

innovatsion faoliyat sub'ektlarining ehtiyojlari uchun qilinadigan tovar-moddiy boyliklarni xarid qilishda imtiyozli soliq, boj-tarif tizimini qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi;

mamlakatimizda iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashda ITTKIlarni soliqlarning rag'batlantirish funktsiyaci yordamida rivojlantirish maqsadga muvofiq. Xususan, korxonalar foyda solig'ini hisoblashda, soliq bazasini ilmiy ishlanmalarga sarflangan mablag'lar miqdoriga qisqartirilishi maqsadga muvofiq;

ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug'ullanuvchi korxonalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida korxonalar ustav kapitalini shakllantirishga yo'naltirilgan mablag'lar miqdoridan kelib chiqib, tabaqalashtirilgan soliq imtiyozlarini joriy etish maqsadga muvofiq. Bunda, soliq imtiyozi muddati ilmiy tadqiqot ishi bilan shug'ullanuvchi yangi tashkil etilgan korxonaning ustav kapitali miqdoriga qarab belgilanadi.

- davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishning soliq, boj-tarif, moliya-kredit tizimini innovatsion rivojlanish modeli talablari va rivojlanish cur'atlariga zudlik bilan moclasihtirish zarur;

- innovatsion mahsulot ishlab chiqarish sub'ektlariga xorijiy investorlar, milliy tovar ishlab chiqaruvchilar, tadbirkorlar va davlat tashkilotlari soliqqa tortish, boj-tarif siyosatini qo'llash, kreditlashda alohida rag'batlantiruvchi yondashuv tizimini ishlab chiqish zarur.

Nodavlat, notijorat tashkilotlar va tadbirkorlar qatlamini innovatsion mahsulotlarni keng qamrovli ishlab chiqarishga, tijoratlashtirishga jalb etish uchun davlat tomonidan zarur sharoitlarning yaratilishi barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning bozor mexanizmi va dastaklari faollashuviga, samarali amal qilishi, pirovardida iqtisodiy o'sishni jadallashtirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

### Adabiyotlar / Jumepamyra / Reference:

Draker P.F. (1992) *Innovatsii i predprinimatel'stvo*. –M.: - S. 234.

Drucker P.F. (2007). *Management: tasks, responsibilities, practices*. Transaction Publishes, NewBranswick, N.J.: London.

Farmon (2022) *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2022 yil 6 iyuldagi "2022 — 2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasi"* PF-165-son Farmoni.

Ichiro Sakata, Kenzo Fujisue, Hirokasu Okumura. (2015) *Do R&D and IT tax credit work? Evaluation of the Japanese tax reform*. – "International Journal of Technology Management. V. 32, №3/4, p.277-287.

Mirziyoev Sh. (2018) *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlicga Murojaatnomasi*. -Toshkent: O'zbekiston, NMIU, b.20.

Ochkovskaya M.S. (2006) *Innovatsii kak kachestvennyy faktor ekonomicheskogo rosta*. Avtoref.dissertatsii iz soiskanie uchenoy stepeni kandidata ekonomicheskix nauk. – M.: Delo, - S.4

Patric E., Yashin V. (2009) *Innovatsionnaya deyatelnost v Germanii // Problemy teorii i praktiki upravleniya. № 1. -S. 62–63.*

Shakirova, F. (2022). *Innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishda soliqlarning ahamiyati. Napravleniya razvitiya blagopriyatnoy biznes-sredy v usloviyax tsifrovizatsii ekonomiki, 1(01), 103-107.*

Shakirova, F.B. (2022). *THE IMPORTANCE OF TAXES IN BUSINESS DEVELOPMENT. Confrencea, 6(6), 236-237.*

Shumpeter Y. (1982) *Teoriya ekonomicheskogo razvitiya. –M. -388 str.*

Tanaka R. (2006). *Tax Incentives for Research and Development in Japan. British Embassy Tokyo. 27 April. [http://www.unknow.or.jp/be\\_e/science/reports/policy/36565x](http://www.unknow.or.jp/be_e/science/reports/policy/36565x)*

Аликулов И., Давронов З. (2015) *Инновацион фаолиятни давлат томонидан тартибга солишнинг хорижий давлатлар тажрибаси. // «Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар» илмий электрон журнали, № 3.*

Зверев А.В. (2008) *Инновационная деятельность в Российской Федерации // Инновации. № 8. С. 49.*

Иванова И.В. (2018) *Налоги и налогообложение : учеб, пособие. Ростов н/Д : Феникс.*

Свечкин И.О. (1993) *Экономическая политика Р. Рейгана. М. С. 64.*

Шакирова, Ф. Б. (2022). *ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ. Scientific Impulse, 1(2), 382-390.*

Эрмаматов Ш.Ж. (2016) *Инновацияларга асосланган иқтисодиёт барпо этишнинг концептуал жиҳатлари. // “Миллий инновация тизимини шаклланишнинг илмий-концептуал ва амалий жиҳатлари” Республика илмий амалий конференцияси материаллари тўплами. – Т., -49-б.*